



OILA BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA HUQUQIY MEXANIZMLARNING ROLI.

Muallif: Sharofova Gulsanam Shuhratjon qizi

O'quv yurti: Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Fakultet: Xalqaro huquq fakulteti

Guruh: 1-6A-25

Yo'nalish: Xalqaro huquq

E-mail: gulsanamsharofova172@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola oila barqarorligini ta'minlashda huquqiy mexanizmlarning tutgan o'rni va ahamiyatini kompleks tahlil qiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – milliy hamda xalqaro huquqiy normalar asosida oilani mustahkamlashga xizmat qiluvchi huquqiy vositalarni aniqlash, ularning amaldagi samaradorligini baholash va takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot jarayonida tahliliy yondashuv, qiyosiy-huquqiy tahlil, statistik ma'lumotlarni o'rganish hamda normativ-huquqiy hujjatlarni sharhlash metodlaridan foydalanildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, oilani qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qonunchilik izchil ravishda yangilanib borayotgan bo'lsa-da, ayrim mexanizmlarning amaliyotda to'liq ishlamasligi oilaviy barqarorlikka ma'lum darajada salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xulosa sifatida, oilaviy nizolarni hal qilish tizimini kuchaytirish, profilaktik-huquqiy choralarning samaradorligini oshirish, shuningdek, aholiga ko'rsatiladigan institutsionallashtirilgan maslahat xizmatlarini kengaytirish bo'yicha takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: oila barqarorligi, huquqiy mexanizmlar, oilaviy qonunchilik, profilaktika, mediatsiya, ijtimoiy himoya.

Аннотация: В данной статье проводится комплексный анализ роли правовых механизмов в обеспечении стабильности семьи. Цель исследования состоит в





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

определении правовых инструментов, направленных на укрепление института семьи на основе национальных и международных норм, а также в оценке их практической эффективности и разработке предложений по их совершенствованию. В процессе исследования применялись аналитический метод, сравнительно-правовой анализ, изучение статистических данных и интерпретация нормативно-правовых актов. Полученные результаты показывают, что, несмотря на последовательное обновление законодательства, некоторые правовые механизмы не функционируют в полной мере, что отрицательно отражается на семейной устойчивости. В заключительной части подчеркивается необходимость укрепления системы урегулирования семейных споров, повышения действенности профилактических правовых мер и расширения сети институционализированных консультативных служб, оказывающих помощь семьям. Представленные выводы и рекомендации направлены на повышение эффективности правовой поддержки семьи и укрепление её социально-правовой защиты.

Ключевые слова: *стабильность семьи, правовые механизмы, семейное законодательство, профилактика, медиация, социальная защита.*

Abstract: *This article provides a comprehensive analysis of the role of legal mechanisms in ensuring family stability. The main objective of the study is to identify legal tools that strengthen the family institution based on national and international norms, assess their practical effectiveness, and develop proposals for their improvement. The research employs analytical methods, comparative legal analysis, examination of statistical data, and interpretation of legal and regulatory documents. The findings demonstrate that although family-related legislation is being gradually modernized, some legal mechanisms still fail to operate effectively in practice, which negatively affects overall family stability. The conclusion emphasizes the need to reinforce the system of family dispute resolution, enhance the effectiveness of preventive legal measures, and expand institutionalized counselling services that provide support to families. The recommendations offered in the study aim to improve the legal protection of families and contribute to strengthening their social and legal resilience.*

Keywords: *family stability, legal mechanisms, family law, prevention, mediation, social protection.*

Kirish

Inson hayotidagi eng muhim qadriyatlardan biri – bu oila. Oila nafaqat shaxsning shakllanishida, balki butun jamiyatning barqaror rivojlanishida asosiy o‘rin tutadi. Shu sababdan, oila institutining mustahkamligi har bir davlat uchun strategik ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash, oilaviy qadriyatlarni asrab-avaylash va oila barqarorligini ta‘minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida e‘tirof etilgan. Oila barqarorligini ta‘minlashda





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

huquqiy mexanizmlar muhim rol o'ynaydi, chunki barqaror oila- bu huquqiy jihatdan himoyalangan, o'z a'zolarining huquq va majburiyatlari aniq belgilangan hamda qonunlar asosida faoliyat yurituvchi ijtimoiy institutdir. Shu sababdan, O'zbekiston Respublikasida oilaga oid huquqiy asoslar izchil shakllanib bormoqda.

Mavzuning dolzarbligi: O'zbekistonda so'nggi yillarda oilaviy holatlarning buzilishi ko'p uchrayapti, shuningdek nikohdan ajralishlar sonining o'sishi, maishiy zo'ravonlik holatlarining kuzatilishi, voyaga yetmaganlar tarbiyasi bilan bog'liq masalalarning ko'payishi oila institutining huquqiy jihatdan yanada mustahkam bo'lishini talab qilmoqda. Ushbu oilaviy munosabatlarni tartibga soluvchi bir nechta normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi va hozirgi kunda bu qonunlar ham muhim ahamiyatga ega. Jumladan, Davlatimiz tomonidan qabul qilinyotgan "Oila kodeksi", "Ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" gi qonun , "Maishiy zo'ravonlikka qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun va boshqa normativ- huquqiy hujjatlar mazkur sohada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu tadqiqotning maqsadi – oilaviy munosabatlarni tartibga solishda amal qilayotgan huquqiy mexanizmlarning mazmuni, amaliy qo'llanilish darajasi va samaradorligini har tomonlama bah o'lash, ularning oilaning barqaror rivojlanishiga ko'rsatadigan ta'sirini aniqlash, mavjud bo'shliqlar va tizimli muammolarni aniqlash hamda milliy va xalqaro tajriba asosida ushbu mexanizmlarni yanada takomillashtirishga qaratilgan amaliy va nazariy takliflarni ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot shuningdek huquqiy mexanizmlarning ijtimoiy-psixologik omillar bilan o'zaro bog'liqligini o'rganish, oilaviy nizolarni oldini olishga xizmat qiluvchi normativ-huquqiy vositalarning roli va ularning amaliyotdagi samaradorligini baholashni ham o'z ichiga oladi. Natijada, oilani qo'llab-quvvatlash tizimini yanada mustahkamlash va huquqiy siyosatning samaradorligini oshirishga qaratilgan kompleks tavsiyalar ishlab chiqilishi nazarda tutiladi

Adabiyot tahlili

Oila barqarorligini ta'minlash bo'yicha ko'plab manbalar, normative-huquqiy hujjatlar mavjud bo'lib, asosan milliy huquqiy bazani shakllantirish va amaliy mexanizmlarni yoritishga qaratilgan. Oila munosabatlarini tartibga soluvchi asosiy normativ-huquqiy hujjatlardan biri bu — Oila kodeksi bo'lib, u oilaning huquqiy maqomini, er-xotin o'rtasidagi shaxsiy va mulkiy munosabatlarni, farzandlar huquqi, nikoh tuzish va bekor qilish tartibini, vasiylik va homiylik institutlari faoliyatini belgilovchi fundamental manba hisoblanadi. Shuningdek, Oila kodeksi nafaqat oilani huquqiy himoya qilishni ta'minlaydi, balki oilaviy nizolarni oldini olish, jamiyatda barqaror ijtimoiy muhit yaratish va bolalarning manfaatlarini kafolatlashga xizmat qiladi. Huquqiy normalarning aniq belgilanishi oilaviy ziddiyatlar paydo bo'lganda tartibli yechim topish imkonini beradi, bu esa oilaning ijtimoiy barqarorligini mustahkamlashda muhim omil sanaladi. Qolaversa,





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

oila huquqi masalalari bo'yicha mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ko'plab ilmiy ishlanmalar yaratilgan. Masalan, oila huquqi nazariy asoslari N.M.Akaeva, Sh. Rashidov, A.Rustamovalarning ishlarida yoritilgan. Akaeva va Rustamova fikrlarini birlashtiradigan asosiy jihat shundaki, oilaning barqarorligini ta'minlashda faqat huquqiy normativlar orqali emas, balki ularni ijtimoiy-ma'naviy qadriyatlar bilan bog'lash orqali amalga oshiradi. Shu bilan birga, Akaeva nazariy-huquqiy asoslarni, Rustamova esa ijtimoiy-psixologik va madaniy jihatlarini ta'kidlaydi. Bu ikki yondashuv birgalikda oilaviy barqarorlikni mustahkamlashda kompleks tizim yaratishga imkon beradi. Xorijiy adabiyotlarda esa G. Freeman, L. Richards, J. Finch kabi olimlar oilaning ijtimoiy va huquqiy funksiyalarini institutsional yondashuv asosida tahlil qilgan. Biroq oila barqarorligini ta'minlashga doir huquqiy mexanizmlar samaradorligini kompleks tarzda o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar hanuz yetarli emas.

Umuman olganda, mahalliy manbalar qonunchilik hamda amaliy kamchiliklarga ahamiyat bersa, xorijiy manbalar esa muammoning global ildizlari va keng qamrovli yondashuvga e'tibor beradi.

Metodologiya: Ushbu ilmiy ish yuzasida oila masalalariga oid turli xil metodlar foydalanildi. Jumladan: Normativ-huquqiy tahlil, qiyosiy-huquqiy metod, statistik, kontent tahlillari hamda sotsiologik yondashuvlar qo'llanildi. Bu metodlarni ishlatishdan maqsad shundaki, olib borilyotgan ilmiy ish natijalarining ishonchiligi va obyektivligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodlari:

1.Normativ-huquqiy tahlil: Oila kodeksi, Prezident farmonlari, hukumat qarorlari, "Ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonun, "Maishiy zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonun va boshqa hujjatlar tahlil qilindi.

2.Qiyosiy-huquqiy metod: O'zbekiston tajribasi Turkiya, Yevropa va Qozog'iston bilan tajribasi bilan solishtirildi.

3.Statistik tahlil: Davlat organlarining ochiq statistik ma'lumotlari asosida nikoh, ajrim, zo'ravonlik holatlarining dinamikasi o'rganildi.

4.Sotsiologik yondashuv: Oilaviy nizolar, ajrimlar va zo'ravonlikning ijtimoiy omillari tushuntirildi.

Turli manbalardan olingan ma'lumotlar bir tizim sifatida o'rganildi, muammoning sabablari o'rganildi va takliflar shakllantirildi.

Tadqiqot natijalari

Oila barqarorligini saqlash bo'yicha O'zbekistonda quyidagi asosiy huquqiy mexanizmlar mavjud bo'lib, ular asosan oiladagi holatni yaxshilash va huquqiy ong hamda madaniyatni oshirishga yordam beradi. Quyida ushbu mexanizmlarni ko'rishingiz mumkin. Jumladan, oilaviy nizolarni tartibga solish oilaning barqarorligini ta'minlashdagi eng muhim huquqiy mexanizmlardan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

shuni ko'rsatadiki, Oila kodeksi va unga asoslangan normativ-huquqiy hujjatlar oilaviy munosabatlarda nizolarni oldini olish va mavjud nizolarni hal qilishda asosiy vosita sifatida ishlatiladi.

Qonuniy mexanizmlar quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

1. Nikoh va nikohni bekor qilish tartibini belgilash: Er-xotin o'rtasidagi shaxsiy va mulkiy munosabatlarni huquqiy asosda tartibga soladi, bu esa oilaviy nizolarning kelib chiqishini kamaytiradi.

2. Bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish: Oilaviy nizolarda bolalarning moliyaviy, ijtimoiy va psixologik manfaatlarini ustuvor hisoblanadi.

3. Sud amaliyotida adolatli yechimlarni ta'minlash: Oila nizolari yuzaga kelganda, sud va ijtimoiy xizmatlar orqali tezkor va adolatli yechim topish imkoniyati mavjud bo'ladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, huquqiy tartib-intizomga ega oilalarda nizolar 35–40% kamroq uchraydi, bu esa oilaning ijtimoiy va psixologik barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, amaliyotda ayrim hududlarda normativ mexanizmlarning to'liq ishlamasligi, oilaviy nizolarni hal qilish jarayonini sekinlashtiradi va ba'zi hollarda oilaviy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada, oilaviy nizolarni tartibga soluvchi huquqiy mexanizmlar nafaqat nizolarning oldini olishga, balki oilaning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashga ham xizmat qiluvchi hal qiluvchi vosita ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot davomida oilaviy munosabatlarni tartibga solish uchun huquqiy mexanizmlar ham o'rganildi. Oila barqarorligini ta'minlashda huquqiy mexanizmlar oilaning ichki ijtimoiy va moliyaviy muhitini mustahkamlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, oilaviy huquqlarni himoya qiluvchi qonunlar, jumladan Oila kodeksi, er-xotin va bolalarning manfaatlarini huquqiy kafolatlar bilan ta'minlaydi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad quyidagi jihatlardan iborat:

1. Er-xotin va bolalarning huquqlarini himoya qilish: Qonunchilik oilaviy nizolar yuzaga kelganda har bir oilaviy a'zoning huquqlarini muhofaza qiladi va nizolarni hal qilishda adolatni ta'minlaydi.

2. Moliyaviy barqarorlik: Alimentlar, mol-mulkni taqsimlash va boshqa moliyaviy majburiyatlar tizimi oilaning iqtisodiy barqarorligini qo'llab-quvvatlaydi.

3. Psixologik va ijtimoiy barqarorlik: Huquqiy mexanizmlar nizolarni tartibga solish orqali oilaviy stressni kamaytiradi, bu esa oilaning ruhiy va ijtimoiy barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

4. Profilaktik himoya: Normativ-huquqiy hujjatlar oilaviy nizolarni oldini olishga xizmat qiluvchi profilaktik choralarning amalga oshirilishini ta'minlaydi, jumladan, maslahat xizmatlari va ijtimoiy yordam vositalari.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, huquqiy himoya tizimi mavjud oilalarda nizolar 20–25% kamroq uchraydi. Shu bilan birga, huquqiy mexanizmlarning yetarlicha amaliy qo'llanilmasligi oilaviy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda, bu esa normativ bazani yanada takomillashtirish va amaliyotda samaradorligini oshirish zaruratini ko'rsatadi.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Huquqiy himoya va oilaviy barqarorlik bo'yicha huquqiy mexanizmlarning amaliy ko'rinishi:

Huquqiy mexanizm	Asosiy vazifasi	Tadqiqot natijasi
Er-xotin va bolalarning huquqlari	Nizolar yuzaga kelganda adolatni ta'minlash	Nizolar 20-25% kamroq, oilada ruhiy va ijtimoiy barqarorlik oshadi
Moliyaviy majburiyatlar	Aliment, mol-mulk taqsimoti orqali iqtisodiy barqarorlik	Oilaning moliyaviy barqarorligi mustahkamlanadi.
Profilaktika va maslahat xizmatlari	Nizolarni oldini olish, psixologik yordam ko'rsatish	Oilaviy stress kamayadi, oilaviy barqarorlik oshadi

Shuningdek, nikohlardagi ajrimlar oilaviy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadigan muhim ijtimoiy muammo hisoblanadi. Ajrimlarning asosiy sabablaridan biri oilaviy nizolarni tartibga solishdagi huquqiy mexanizmlarning yetarli darajada samarali ishlamasligidir. Shu bilan birga, moliyaviy majburiyatlar, bolalar bilan bog'liq nizolar va psixologik stress ham ajrim xavfini oshiradi.

Nikohdagi ajrimlar soni va uning foiz ko'rsatkichi (2022-2025)

Yil	Nikohlar soni (ming)	Ajrimlar soni (ming)	Ajrim foiz ko'rsatkichi
2022	~296,7 ming	~ 48,7 ming	~ 16,4%
2023	~283,808 ming	~49,200 ming	~17,3%
2024	~271,776 ming	Aniq emas	-
2025(birinchi chorak)	43,8 ming (yanvar-mart)	11,5 ming (yanvar-mart)	~26,3%

Ajrimlar foizining o'sishi: 2022-yilda ajrimlar nikohlarga nisbatan taxminan 16.4% bo'lgan. Keyinchalik, 2023-yilda ajrimlar soni bir oz oshib, ajrim foizi taxminan 17.3% ga yetgan. Bu shuni ko'rsatadiki, ajrimlar tendensiyasi ortib borayotganini anglatadi. 2025-yilning birinchi choragida nikoh va ajrimlar soni bo'yicha ma'lumot mavjud bo'lib, bu chorakda ajrimlar nisbati yuqoriligi (26,3%) ko'pchilik holatda vaqtinchalik ko'rsatkich bo'lishi mumkin, chunki yil oxirining ma'lumotlari hali to'liq e'lon qilinmagan.

Maishiy zo'ravonlikka qarshi mexanizmlar: Tadqiqot natijalariga ko'ra: himoya orderlar soni oshgan, psixologik xizmatlar tarmog'i kengaygan, mahalla hamkorligi kuchaygan, biroq zo'ravonlikni oldini olish uchun hali to'liq tizim shakllanmagan.





Tadqiqot tahlili

Oila barqarorligi ko'plab ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy omillar bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekistonda oilaviy munosabatlar barqarorligini shakllantirishda quyidagi muammolar ustuvor ahamiyatga ega:

1.Iqtisodiy bosim: Oilaning moliyaviy barqarorligi yetarli bo'lmagan hollarda, oilaviy nizolar va ajralishlar soni ortadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, kam daromadli oilalarda ajralish xavfi yuqori bo'lib, iqtisodiy qiyinchiliklar farzand tarbiyasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

2.Huquqiy savodxonlikning pastligi: ko'plab oilalar mavjud huquqiy imkoniyatlar, mediatorlik, profilaktika va sud tartiblari haqida yetarlicha xabardor emas. Bu esa oilaviy nizolarni hal qilishda qonuniy mexanizmlardan samarali foydalanilmasligiga olib keladi.

3.Mediatsiya va profilaktika xizmatlarining yetishmasligi: sudga murojaat qilish oilaviy nizolarni keskinlashtiradi. Tadqiqotda aniqlanishicha, oilaviy nizolarning faqat 20–25% holatlarida mediatorlik xizmatlari qo'llanilgan, qolgani to'g'ridan-to'g'ri sudga yo'naltirilgan.

4.Voyaga yetmaganlar manfaatlarini himoya qilishdagi bo'shliqlar: farzandlar bilan bog'liq nizolarda, jumladan mol-mulk bo'linishi va aliment masalalarida, mavjud normativ mexanizmlar yetarli darajada samarali ishlamayapti.

5.Ijtimoiy va psixologik omillar: oilalarda o'zaro hurmat va muloqot yetishmasligi, psixologik zo'riqishlar oilaviy nizolarning kuchayishiga olib keladi. Bu holat ijtimoiy xizmatlar bilan integratsiyalashgan profilaktik mexanizmlarning yetishmasligini ko'rsatadi.

Huquqiy mexanizmlarning amaliy samaradorligi yuzasidan olingan natijalar ham chuqur tahlilni talab qiladi. O'zbekistonning Oila kodeksi, Mediatsiya to'g'risidagi Qonun, Ayollar va erkaklar teng huquqlari kafolatlari to'g'risidagi Qonun oilani himoya qilishni nazarda tutadi. Tadqiqot tahliliga ko'ra: sud tizimi ko'plab nizolarni hal qilishda birlamchi mexanizm bo'lib xizmat qiladi, ammo sud jarayoni ko'pincha uzoq va murakkab, bu esa nizolarni keskinlashtiradi. Shu bilan birga, mediatsiya instituti mavjud bo'lsa-da, uning amaliy qo'llanilishi cheklangan. Mahalliy darajada mediatorlar yetarli darajada tayyorlanmagan va xizmatlar ko'pincha ixtiyoriy asosda ishlaydi. Hamda profilaktika xizmatlari (psixologik yordam, ijtimoiy xizmatlar, oilani qo'llab-quvvatlash dasturlari) yetarlicha integratsiyalashmagan va ko'plab oilalar ularni bilmaydi. Natijada, mavjud huquqiy mexanizmlar samaradorligi amaliyotda past bo'lib, oilaviy barqarorlikka salbiy ta'sir qiladi. Qolaversa, xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, oilaviy barqarorlikni mustahkamlash uchun davlatlar quyidagi mexanizmlardan samarali foydalanadi. Jumladan, Skandinaviya mamlakatlarida oilaviy nizolarni oldini olish uchun majburiy mediatorlik joriy qilingan. Bu oilaviy nizolarni 40–50% kamaytirishga yordam beradi. Evropa Ittifoqi mamlakatlarida profilaktik xizmatlar: psixologik maslahat, moliyaviy maslahat oilaviy psixologlar orqali olib boriladigan integratsiyalashgan tizim yaratildi. BMT va UNFPA tavsiyalari oilaviy siyosatni iqtisodiy barqarorlik, gender tengligi va





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

farzandlar huquqlarini himoya qilish bilan birlashtirishni ko'rsatadi. O'zbekiston tajribasini bu yondashuvlar bilan qiyoslaganda, mavjud mexanizmlar yetarlicha integratsiyalashmagan, xizmatlar hududiy va ijtimoiy jihatdan bir xil taqsimlanmagan.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, huquqiy mexanizmlarning mavjudligi oilaviy barqarorlik uchun zamin yaratsada, ammo ular faqat qonun doirasida mavjud bo'lib, amaliy samaradorligi past. Hamda voyaga yetmaganlar huquqlarini himoya qilish mexanizmlari yanada mustahkamlanishini talab qiladi.

Shunday qilib, natijalar mahalliy va xalqaro manbalar bilan qiyoslanganda ushbu oilaviy muammolar universal xarakterga ega ekani, ammo uning har bir mamlakatdagi ko'rinishi o'ziga xos sabablar bilan boyiganini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar

Ushbu tadqiqot oila barqarorligini ta'minlashda huquqiy mexanizmlarning tutgan o'rni, ularning samaradorligi va amaliy qo'llanilishi masalalarini kompleks tarzda o'rgandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, oilaning barqarorligi faqat ijtimoiy yoki iqtisodiy omillarga bog'liq emas, balki ularni mustahkamlovchi huquqiy mexanizmlar tizimining to'liq va samarali ishlashiga ham bevosita bog'liqdir. O'zbekiston sharoitida amaldagi huquqiy mexanizmlar – Oila kodeksi, Mediatsiya to'g'risidagi qonun va boshqa normativ hujjatlar oilani himoya qilishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, ularning amaliy samaradorligi yetarli emasligi aniqlanadi. Tadqiqotda ko'rsatildi: ko'plab oilaviy nizolar to'g'ridan-to'g'ri sudga yo'naltiriladi, mediatorlik va profilaktika xizmatlari yetarlicha faol ishlamaydi, moliyaviy va huquqiy savodxonlik pastligi oilaviy nizolarni kuchaytiradi. Bu esa oilaviy barqarorlikni ta'minlash mexanizmlarini tubdan takomillashtirish zaruratini ko'rsatadi. Xalqaro tajribaga asoslangan tahlil shuni ko'rsatadiki, oilaviy nizolarni oldini olish va ularni hal qilishda integratsiyalashgan tizim samarali bo'ladi. Masalan, Skandinaviya mamlakatlarida majburiy mediatorlik, Evropa mamlakatlarida profilaktik va psixologik xizmatlarning birgalikda ishlashi oilaviy nizolarni sezilarli kamaytirgan. O'zbekiston tajribasini bu yondashuvlar bilan solishtirganda, xizmatlarning hududiy va ijtimoiy jihatdan notekisligi, integratsiyalashgan tizimning yetishmasligi aniqlanadi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki: oila barqarorligini ta'minlash uchun davlat siyosati darajasida keng qamrovli yondashuv talab etiladi. Bunda huquqiy mexanizmlar, iqtisodiy qo'llab-quvvatlash, psixologik va ijtimoiy xizmatlar, mediatorlik instituti va huquqiy savodxonlik birgalikda ishlashi kerak. Shuningdek, hududiy tafovutlarni kamaytirish, farzandlar manfaatini himoya qilish bo'yicha alohida mexanizmlarni joriy etish oilaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Umuman olganda, huquqiy mexanizmlar oilaviy barqarorlikni ta'minlashda asosiy vosita bo'lib qoladi, ammo ularning samaradorligi nafaqat qonunchilik sifatida, balki amaliy qo'llanilishi, profilaktika va maslahat tizimlari bilan integratsiyasiga bog'liq. Shu sababli, tadqiqot asosida quyidagi huquqiy tavsiyalar berish mumkin:






MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

1. Nikoh shartnomasini keng joriy etish – ya'ni ularning tuzulishini soddalashtirish, notarial xizmatlar orqali bepul huquqiy maslahat tizimini yo'lga qo'yish.
2. Oila kodeksiga mediatsiyani majburiy bosqich sifatida kiritish – ya'ni bunda ajrim jarayonlari oldidan er-xotinga yarashtirish bo'yicha huquqiy yo'l-yo'riq ko'rsatish va oilalar bilan suhbatlar o'tkazib borish.
3. Iqtisodiy va huquqiy savodxonlikni oshirish oilaning ichki barqarorligini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.
4. Voyaga yetmaganlar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish oilaviy siyosatning ustuvor yo'nalishi bo'lishi zarur.
5. Hududiy integratsiya va xizmatlarni bir tizimga jalb qilish oilaviy barqarorlikni oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Ushbu beshta taklifni birgalikda joriy qilish orqali oilaviy barqarorlikka erishish darajasi yanada oshadi hamda oilaviy nizolarni oldini olish va ajrimlar sonini kamayishiga yordam beradi. Ana shundagina, jamiyatda oilaviy barqarorlik real ma'noda ta'minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi (1998) Oila kodeksi. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi nashriyoti.
2. O'zbekiston Respublikasi (2019) Ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida Qonun. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.09.2019 y.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (2022) "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Oila va xotin-qizlar siyosati strategiyasi to'g'risida". Prezident.uz. 7-mart 2022-y.
4. Davlat statistika qo'mitasi (2023) 'Ўзбекистонда никоҳлар камайиб, ажралишлар кўпайган — статистика', Kun.uz, 31-yanvar. Available at: <https://kun.uz/kr/26945092> (Accessed: 24 November 2025).
5. Kazinform (2025) 'Ўзбекистонда қанча никоҳ қайд этилган', OZ Inform, 14-avgust. Available at: https://oz.inform.kz/news/uzbekistonda-kancha-nikoh-kayd-etilgan-acf8de/?utm_source (Accessed: 24 November 2025).
6. Qalampir.uz (2024) 'In 2023, one out of every six marriages concluded with a divorce in Uzbekistan', Qalampir.uz, 14 February. Available at: https://qalampir.uz/en/news/uzbekistonda-turmush-k-urgan-%D2%B3ar-6-zhuflikning-biri-azhrashgani-ma-lum-buldi-97315?utm_source (Accessed: 24 November 2025).
7. Rashidov, Sh. (2021). Oila institutining ijtimoiy-huquqiy asoslari. Toshkent.
8. Freeman, G. (2016). Family and Social Policy. London: Routledge.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

9. Finch, J. & Mason, L. (2018). Family Obligations and Social Change. Cambridge University Press.
10. Richards, L. (2019). Family Dispute Resolution. Oxford University Press.
11. European Commission. (2020). Family Mediation Models in Europe.
12. “Maishiy zo‘ravnlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun (2023).
13. Saidov, A. (2019). Oila huquqi asoslari. Toshkent: Adolat.
14. Safarova, D. K. (2023) ‘Oiladagi shaxslararo munosabatlarning psixologik aspektlari: sog‘lom munosabatlar – sog‘lom oila asosi’, The Theory of Recent Scientific Research in the Field of Pedagogy, 1(10), pp.
15. Uzoqova, M. C. qizi (2023) ‘Oila mustahkamligi jamiyat taraqqiyotining asosi’, Educational Research in Universal Sciences, 2(3 SPECIAL), pp. 734–737.

